

SHAVKAT RAHMON SHE'RIYATIDA METAFORALAR BADIYATI

Jamila Yunusova

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

email: Jamila2020_yunusova@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada shoir Shavkat Rahmon she'rlarida qo'llangan metaforalarning lingvopoetik xususiyatlari o'rganilgan

Kalit so'zlar: metafora, an'anaviy, individual, ekspressivlik, badiiy matn, leksema, Shavkat Rahmon.

Annotation. This article examines the linguopoetic characteristics of the metaphors used in the poetry of Shavkat Rahmon.

Keywords: metaphor, traditional, individual, expressiveness, artistic text, lexeme, Shavkat Rahman.

Ko'chimlar ham badiiy nutqning ifoda imkoniyatini ta'minlovchi, shoirning muayyan maqsadini amalga oshirishga xizmat qiluvchi vositalar. Ko'chma ma'no hosil qilishning eng keng tarqalgan usullaridan biri metaforadir. Metaforalar ijodkorning badiiy mahorati, til sezgisini aks ettirib, ular badiiy asarning ekspressivligini, tasviriylik va obrazlilik darajasini belgilovchi muhim omillardan biridir. Metaforalar predmet va hodisalarni, ularga xos xususiyatni qiyoslash hamda o'xshatish natijasida yuzaga keluvchi so'zlarning ko'chma ma'nosiga asoslangan nutqiy ekspressiyadir. Unga adabiyotshunoslik va tilshunoslikka oid tadqiqotlarda "qisqartirilgan qiyos"¹, "belgilar qiyoslanishining tugallangan formasi"², "o'xshashli ko'chim"³, o'ta kuchli zakovat ifodasi"⁴, kabi ta'riflar beriladi.

Metaforalar ular har bir tilda urf-odatlar, faolligi ta'minlanayotgan hudud, fan va madaniyatning, iqtisodiy va xo'jalik taraqqiyotining darajasiga bog'liq ravishda milliy xarakter ham kasb etadi. Lekin she'riyatda nutqni ixchamlashtirish, aytilayotgan fikrning obrazli ifodalanishini ta'minlash, baholash, emotsionallik-ekspressivlikni hosil qilish kabi funksional-uslubiy va poetik vazifalarni bajaradi.

80-yillar oxiri va 90-yillar boshi o'zbek she'riyati ruhiy olam manzaralarining ifodalanishi, metaforik ifodalar, tagma'noli so'zlar, ramziy ifodalarning bisyorligi

¹ Потебня А.А. Из записок теории словесности.- Харьков. 1955.С.26

² Белый А. Символизм. –М., "Мусагет", 1910.С. 78

³ Adabiyotshunoslik terminlar lug'ati. – Т. 1967. В. 110.

⁴ «Литературная газета» 1965. 4 ноябрь.

bilan xarakterlanadi.⁵ Bu jihatlar badiiy nutqning ekspressivlik darajasini yuksaltiradi. “Ekspressivlik esa obrazlilikning oliy darajasidir.”⁶ Shavkat Rahmon ijodini kuzatar ekanmiz, uning ruhiy olam manzaralari, kurashchan ruhi topqirlik bilan qo‘llagan metaforalarida o‘z ifodasini topgan.

Shoir ijodining o‘ziga xos muhim jihatlaridan biri sifatida she’rlarida faol qo‘llanuvchi, shoir ijodida an’anaviylik xususiyatiga ega bo‘lgan obrazlardir. Poetik obrazlar metaforalar orqali shakllantirilgan bo‘lib, ularni tahlil qilish orqali shoirning badiiy mahoratini tadqiq qilish mumkin. Shuningdek, Shavkat Rahmon she’rlarida an’anaviy metaforalar ham, xususiy-muallif metaforalari ham juda katta mahorat bilan qo‘llangan. Shoir she’rlarida an’anaviy metaforalarga ham o‘ziga xos badiiy-estetik yuk qo‘ya olgan. O‘zbek tili an’anaviy metaforalarga boy, unda o‘zbek xalqining tashqi olamni, insonning botiniy dunyosini nozik badiiy tafakkur bilan idrok etishi go‘zal shakllarda o‘z ifodasini topgan. Masalan, faol qo‘llangan so‘zlardan biri *daryo* leksemasi. Bu an’anaviy metafora hosil qiluvchi so‘zni shoir shunday mazmuniy kontekstda ishlatadiki, ta’bir joiz bo‘lsa, so‘z yangi poetik libos kiyadi.

*Bir daryo,
Tepadan bo‘g‘ilgan daryo...
shashtini sindirgan metin to‘siqlar,
sanoqsiz toshlarni oralab oqar
elning tilidagi o‘lmas qo‘shiqday.*

She’rda xalqning *ma’naviy merosiga* nisbatan *daryo*, unga qarshi qilingan harakatlarga *metin to‘siqlar, sanoqsiz toshlar* metaforalari qo‘llangan. Shoir millat, xalq bor ekan uning ma’naviy merosi avloddan avlodga o‘tib yashashini, uni hech kim tazyiqlar bilan yo‘q qila olmasligini ko‘chim vositasida ta’sirli ifodalab bergan. Shuningdek, *daryo* so‘ziga nisbatan *bir* aniqlovchisining qo‘llanishi unga yuklanayotgan ma’noni ta’kidlagan.

Badiiy matnda eng katta badiiy quvvat obrazda aks etadi, obraz ijodkor mahorat bilan qo‘llagan metaforalarda shakllanadi. Shavkat Rahmon she’riyatida faol qo‘llanuvchi so‘zlar bor. Masalan: *yig‘i, quyosh, yulduz, daryo, oy, tog‘, tosh, yo‘l, bulut, daraxt, gul, shamol, sukunat, oq, yurak, ko‘z, ko‘ngil, so‘z, g‘ul* kabi. “Adabiyotshunoslikda bu xil so‘zlar *an’anaviy poetik obrazlar* deb ataladi⁷”. Biz poetik ma’no anglatishiga ko‘ra *poetik so‘zlar* tarzida nomladik. Keyingi o‘rinlarda *poetik so‘zlar* tarzida qo‘llaymiz. Ular boshqa shoirlar ijodida ham qo‘llangan. Shavkat Rahmon she’riyatida bu so‘zlarning poetik ma’no qamrovi kengayishi, so‘z boshqa mazmuniy semalar ta’sirida yangi ma’no qirrasiga ega bo‘lishi kuzatiladi.

⁵ Мухаммаджонова Г. 80- йиллар охири 90-йиллар бошлари ўзбек шеърининг лингвопоетик тадқиқи: Фил. фан. номз. ... дисс. – Андижон, 2003. – Б. 112.

⁶ Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. – Тошкент: Чўлпон, 1993. – Б. 23.

⁷ Муллахўжаева Р. О‘sha manbaa. – В. 100.

Shavkat Rahmon she'riyatidagi metaforalar ham o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Deyarli barcha ijodkorlar faol qo'llaydigan *tosh* leksemasining ma'no qirralari Sh.Rahmon she'riyatida turli metaforik talqinlarda namoyon bo'ladi. Tosh – tabiat bag'rida uchraydigan kristall jism. Uning konseptual-semantik doirasiga kiruvchi *qattiq, og'ir, yuk, vazn, zarba, jarohat, jonsiz, katta, kichik* kabi semalarning har biri shoir ijodida o'zgacha poetik ma'no kasb etgan.

*Dunyo zolimniki,
Men endi so'zmas,
faryod-la so'ylarman o'zimga o'zim:
xo'sh, kimman, nimaman,
ulkan bir qurtday
o'rmalab o'tarman **zamon toshidan** (“Xomashyo xususida”).*

Shoir lirik qahramoniga qurt obrazini tanlagan. O'z harakatlarini qurtning o'rmalashiga qiyoslagan. Lirik qahramon mustabid tuzum siyosatidan aytar so'zi bo'g'ilib, o'zining “manqurt”ga (xomashyoga – ipak qurtiga) aylanib qolayotganini his qiladi. Qurtga xos *o'rmalash, ojizlik, sekinlik, holsizlik* xususiyatlarini o'zida tuyadi va juda katta tosh-to'siqlardan asta o'rmalab o'tishdan boshqa chorasi yo'qligini tan oladi. *Zamon toshi* metaforasida shoir yashagan davr, *ruhiy qiynoq, isyon va charchoq* motivlari o'z aksini topib, poetik maqsadni yuzaga chiqargan.

Quyidagi parchada esa tosh leksemasining “zarba”, “jarohat” semalari faollashtirilib, tuhmat va ig'vodan yetkaziladigan ma'naviy jarohat haqida so'z yuritadi:

*Oqibat, jimgina haykal poyiga
Qaytar-u barini qaytadan boshlar,
kamayar noma'lum arshdan yog'ilgan
tuhmat-u ig'vodan yasalgan toshlar. (“Ommaning ahvoli”)*

Xalqimizda “tosh otmoq” iborasi bor, *dushmanlik qilmoq, yomonlik qilmoq, ko'rolmaslik* ma'nolarini anglatadi.

*otsinlar **jaholat toshini,**
labingni qattiqroq tishlagin,
ko'rsatma ko'zlaring yoshini* (“Dastxat”)

misralarida esa “*jaholat toshi*” metaforik birikmasi ilmsizlikdan, johillikdan, ma'naviyatsizlikdan kelib chiquvchi to'siqlar, ruhiy azoblarga bardosh berishga, boshni tik tutishga chaqiradi.

*Oyog'imga
botmon toshlarni
bolalikdan bog'lab qo'ydi kim?
Endi xalos bo'lmoqqa yetmas
yovuzlardan asragan umrim,*

– she'rida tosh so'zi tutqunlik harakatsizlik, turg'unlik, og'ir yuk ma'no qirralari bilan poetik vazifa bajaradi.

O'ttiz uch yoshimda

O'ttiz uch ming yil

hasrati, dog'i bor qarashlarimda,

sangtarosh xo'rsinar qadimdan buyon

olam toshlarini taroshlar ekan... (“Yo'lovchi”)

she'rida esa tosh dunyodagi jamiki mavjudot, xalloqi olam tomonidan yaratilmish *xilqatlar* ma'nosida faollashadi: sangtarosh – yaratuvchi, u o'z “toshlarini” taroshlab, ziynat berar ekan, xo'rsinadi.

Shunda yuragimga umrini qo'ydi,

unutdi kunlarning zil toshlarini... (“Qizgul”)

misralarida esa tosh so'zi azob, qiynoq, yuk, g'am-tashvish ma'nolarini faollashtirib, qayg'uli kunlar bilan bog'liq xotiralarning unutilishiga ishora qiladi. Barchasida toshga xos og'irlik belgisi yetakchi o'rin egallaydi.

“Gullayotgan tosh” she'rida esa toshni trillion marotaba kichraytirilgan tunga qiyoslaydi. “Manovi qora tosh – / Vaqt kaftlarida / trillion marotaba kichraytirgan tun”. Bu o'rinda ijodkor uchun tosh *armon, sirlilik* ramzi, tunda ham xuddi shu xususiyatlar mujassam. Tun sirli bo'lganidek, tosh ham bu qoralikda sirli. Bu badiiy usul orqali shoir kitobxonda turli tasavvurlar paydo qiladi.

Tosh ham gullarmi deb,

minglab kaltabin

gurzisin do'laytib yig'ilgan paytda,

mardona iljayib, ko'rasiz, dedim,

bir kuni gullaydi bu tosh, albatta.

Adabiyotshunos R.Mullaxo'jayeva she'rni “Qora tosh xalqning ko'ngil tubidagi dardi, armonlari, ushalmay qolgan orzulari. Agar bu tosh qotgan armonlar harakatga kelsa, xalq qudratli kuchga aylanadi. Toshning gullashi ushbu jarayonlarning ramziy ifodasidir”⁸, – deya tahlil qiladi. Ya'ni bu o'rinda tosh – *armon, toshning gullashi* armonlarning ushalihi uchun *kurash* ma'nosini anglatmoqda.

Tilshunos olim M.Mirtojiyev ta'kidlagandek, “muayyan leksik ma'nodan hosila ma'no yuzaga kelar ekan, leksik ma'no o'z referentiga egaligi holda, hosila ma'no boshqa bir yangi referentni ifoda etadi. Leksik ma'noning kengayishi va torayishida leksik ma'noning mavjud referenti hajmida o'zgarish bo'ladi, ya'ni u kattalashadi yoki kichiklashadi.”⁹ Demak, tosh leksemasida kengayish, ifoda imkoniyatlarining oshganligini ko'rishimiz mumkin. Nemis tilshunosi M.Filipp, ayniqsa, “belgi” tushunchasi bilan “sema” tushunchasini farqlash tarafdori ekanini ta'kidlab, buni sema ma'no, ya'ni semema komponenti bo'lib, belgi referent komponentidir, deb

⁸ Муллахўжаева Р. О'sha manba. – В. 116.

⁹ Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2010. – Б. 76.

izohlaydi¹⁰. Yana “bir belgi bir sema sifatida tan olinadi, lekin leksik oppozitsiyaga ko‘ra farqli” ekanligini qayd etadi¹¹. Haqiqatda ham shunday, referent asosiy belgilari bilan ongda aks etadi, tushunchada qayd etiladi, tushuncha ongda aks etgan referentning o‘zidir. Leksik ma‘no tarkibida esa tushunchadan tashqari ekspressiv-emotsional va uslubiy bo‘yoqlar ham o‘z ifodasini topadi¹². Ko‘chma ma‘no o‘zi ishtirok etgan matnda toshning bir hosila ma‘nosini hosil qilgan bo‘lsa, umumiy barcha hosila ma‘nolar birlashib, kitobxon ongida yaxlit bir poetik ma‘noni anglatishga xizmat qiladi. Bu kabi metaforik jarayonlar shoir ijodida ko‘p uchraydi va o‘ziga xos muhim jihatini tashkil qiladi.

Voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko‘z o‘ngida aniq va to‘la gavalantirishda metaforalarning o‘rni, ahamiyati beqiyosdir. Bir buyumning nomini biror narsa-buyumga biror tomondan o‘xshashligini e‘tiborga olib ko‘chirish va so‘zning yangi ma‘nolari hosil bo‘lishida qatnashadigan omillardan biri metaforadir¹³. Manbalarda metaforaning ikki turi farqlanadi: lingvistik va xususiy-muallif metaforalari¹⁴. Lingvistik metaforalar obrazlilik, tasviriylikdan xoli bo‘lsa, xususiy-muallif metaforalari yangi va okkazional, kutilmagan bo‘ladi. Ularni yozuvchining o‘z estetik maqsadi, ya‘ni borliqni subyektiv munosabatini ham qo‘shib obrazli ifodalab nomlash asosida yaratadi”¹⁵.

Alamzada itlarning sasin

adashtirib ketdim xotirjam.

Ho‘kizlarni ortda qoldirdim,

hangrayotgan eshaklarni ham. (“Suronlarni oralab o‘tdim”)

Keltirilgan misoldagi *it*, *ho‘kiz*, *eshak* metaforalari an‘anaviy metaforalar bo‘lib, ular orqali salbiy illatga ega odamlar nazarda tutilgan.

Metaforalar mavjud holat, predmetni qayta nomlash xususiyatiga ega. Metaforaning bu xususiyati, ayniqsa, lirik nutqda yaqqol kuzatiladi. Ijodkor predmet, voqea-hodisa, holatni badiiy niyatiga mos tarzda qayta nomlaydi. Nomlash jarayonida so‘zda emotsional ifoda, ijodkorning ijobiy yoki salbiy bahosi aks etadi. Shavkat Rahmon she‘rlarida ham nominatsiyalash tipidagi metaforaning go‘zal namunalarini uchratamiz.

Temir pardalarni vaqt surguncha

but odam qolmapti bu uyda, bolam! (“Shohrux mirzo suhbatlari”)

Davlat tuzumiga nisbatan qo‘llangan “*temir parda*” metaforasi shoirning badiiy niyatini obrazli gavalantirishda muhim poetik vazifa bajargan. Parda “xonani quyosh nuri, shamol va boshqa narsalardan to‘shish yoki bezak uchun deraza, eshik va shu

¹⁰ Philipp Marthe. Semantik des Deutschen. – Berlin: WBVB, 1998, – S. 21.

¹¹ Philipp Marthe. O‘sha manba. – S. 21.

¹² Mirtojdiyev M. O‘sha manba. – B. 76.

¹³ Маҳкамов Н., Эрматов И. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 2013, – Б. 70.

¹⁴ Мукаррамов М. O‘sha manba. – B. 13.

¹⁵ Ўлдошев М. O‘sha manba – B. 207.

kabilarga tutiladigan gazlama, mato”¹⁶. Ijtimoiy tuzumning inson haq-huquqini, erkinligini cheklashi pardaning to‘shish vazifasiga o‘xshatish orqali nom ko‘chirilgan, unda totalitar tuzumning mudhish qiyofasi aks etgan. Hosil qilingan xususiy metafora matnda emotsional-ekspressiv bo‘yog‘i, shoirning subyektiv munosabatini aks ettirishi bilan lingvopoetik qimmatga ega.

Metafora obrazli tafakkur natijasi bo‘lib yaraladi, tilning estetik vazifa bajarish funksiyasi, ayniqsa, poetik nutqda to‘la namoyon bo‘ladi. Zero, metafora narsa-hodisani shunchaki atab qo‘ymaydi, balki uni boshqa narsa-hodisaga qiyosan tavsiflaydi, ongimizda atalayotgan narsa haqida jonli tasavvur – obraz yaratadi.

Minglab qorachiqilar

yaltirar yovuz,

dadil oldga chiqar serzardalari –

qorong‘ida toshlar yaraqlar sovuq –

chil-chil sinar

dunyo derazalari. (“Katta kun”)

Davlat tuzumining yakson bo‘lishi aniq real kuzatiladigan hodisa emas, shoir metafora orqali uni obrazli tasvirlab, ko‘rish, kuzatish imkonini beradi. Jarayon kitobxon tasavvurida bir on gavdalanadi, u shiddatli tuyg‘ularni his etadi, jarayon ishtirokchisiga aylanadi. Bu kabi original metaforalar shoirning yuksak mahorat egasi ekanligidan dalolat beradi.

Tilshunos D.Xudayberganova bir maqolasida X.Ortega-i-Gassetdan go‘zal iqtibos keltiradi: “metafora tafakkurning qo‘lini uzaytiradi”. Olima ta‘kidlaydiki, “Antik davrlardan hozirgacha metafora deb nomlangan nutq hodisasi dunyoni badiiy mushohada qilish jarayonida yuzaga keluvchi so‘zdagi nominativ ma‘noning o‘ziga xos hosilasi sifatida olimlar e‘tiborini jalb etgan”¹⁷.

Shuni ta‘kidlash lozimki, original yasalgan metaforalarning emotsional-ta‘sirchan ifodalanishida ular yashayotgan gap qurilishi ham muhim vazifa bajaradi.

Bormi er yigitlar, bormi er qizlar,

bormi gul bag‘ringda jo‘mard nolalar,

bormi bul tufroqda o‘zligin izlab,

osmon-u falakka yetgan bolalar. (“Turkiylar”)

She‘r ritorik so‘roq gap qolipida tuzilgan. Bizga ma‘lumki, ritorik so‘roq gaplarda ifodalangan fikr sof so‘roq bo‘lmay, subyekt yangi informatsiya olishni ko‘zda tutmaydi, so‘roq javob talab qilmaydi, balki so‘roq orqali hukm ifodalanadi. Shuningdek, “Ritorik so‘roq stilistik priyom sifatida o‘quvchining yoki tinglovchining diqqatini ma‘lum bir tema yoki uning qismiga jalb qilish uchun ishlatiladi”¹⁸. *Bor*

¹⁶ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildli. L – P. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B. 647.

¹⁷ Худойбергано́ва Д.С. Матнинг мазмуний таркибида метафоралар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 1. – Б. 35–39.

¹⁸ Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 27.

so'ziga -mi yuklamasi qo'shish orqali ritorik ma'no hosil qilingan va parchada to'rt o'rinda takrorlangan "bormi" so'ziga badiiy mazmunga kuchli ta'kid yuklagan. She'r mazmunidan anglashiladiki, Shavkat Rahmon yoshlarga ularda katta imkoniyat borligini, birlashib juda katta kuchga aylana olishi mumkinligini ta'kidlaydi. Parchadagi *Er yigit* va *er qiz* metaforasining yasalishi e'tiborni tortadi. "Er" so'zining izohli lug'atda 3 ta ma'nosi berilgan. 3-ma'nosi: *mard, oliyjanob, jasur kishi*. Yigit va qiz so'zlari oldidan *er* so'zini qo'llash orqali ularga *mard, jasur* ma'nolarini yuklangan. *Mard, jasur* bo'lish jins farqlamasligi, o'zligini anglagan inson ruhan kuchli bo'lib haqiqatga tik boqa olishi ham metaforalar mazmuniga singdirilgan. *Er yigit* va *er qiz* – *mard yoshlar* birlashib, *katta kuchga* aylanishi *jo'mard nola* metaforasi orqali ifodalangan. Qo'llangan metaforalar aloqalantirilsa, *jo'mard nolalarni mard o'g'il, qizlar* hosil qilishi anglashiladi. To'rt o'rinda qo'llangan "bormi" so'zi to'rtta hukmni ifodalagan: 1) *bormi er yigitlar* – mard o'g'lonlar bor; 2) *bormi er qizlar* – mardlik, jasurlik qizlarga ham xos; 3) *bormi jo'mard nolalar* – er yigit va er qiz birgalashib katta kuchga, *jo'mard nolaga* aylana oladi; 4) *bormi bul tufroqda o'zligin izlab, osmon-u falakka yetgan bolalar* – o'zligini anglab birlashgan kuch oldida hech narsa to'siq bo'la olmaydi. Bu hukmlar natijasida kitobxon ham o'z "meni" oldida yuzlashadi, o'z-o'zini taftish qiladi. Shavkat Rahmon she'rlarining muhim lingvopoetik xususiyati kitobxonga kuchli ta'sir qilishida. Har gal o'qilganda she'r xuddi o'sha kitobxon uchun yozilganday, undagi fikrlar unga qaratilgandek. Bu so'z san'atkorining juda yuksak darajada ijod qilganini ko'rsatadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, shoir she'rlarida ot so'z turkumiga oid metaforalar salmoqli qismni egallaydi. Ulardagi asosiy xususiyat shakliy o'xshashlikka tayanib hosil qilinishida.

*Xayolimning tirishlariga
gullar oqib kelar qayoqdan —
ro'mollarning tirqishlaridan
yilt etkizib qarar ayollar.*

Tirqish so'zi qattiq jismlarga, ko'pincha eshik, deraza, darvoza kabilarning ochilib qolgan qismiga nisbatan ishlatiladi. She'rda ayollarning yuzida ko'z va ro'mol orasidagi masofa shakl va hajm o'xshashligi asosida "tirqish" so'zi bilan ifodalangan. So'zlashuv uslubida "o'g'rincha qarash" deb ataluvchi bu nigohga shoir go'zal badiiylik bag'ishlagan.

Ma'lumki, harakat faqat insonga emas, balki jonivorlar, narsa-hodisalarga ham xos. Fe'l turkumiga kiruvchi so'zlarning bir qismi insonga, bir qismi jonivorga, tag'in bir qismi narsa-hodisalarga xos harakatni ifodalaydi.¹⁹ Sh.Rahmon she'rlarida shunday metaforalar borki, jonli narsalarning harakati jonsiz narsalarga ko'chiriladi va harakat bajaruvchisining nomi metaforizatsiyalashadi:

¹⁹ Каримов.О. Метафораларнинг шеър бадииятидаги ўрни // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2014. – №2. – Б. 77–80.

*G'ichirlaydi bezovta chinor,
Ogoh etib shovullaydi: ku – u – z ,
Ammo uchta sap-sariq ilon
Og'ochlarga o'rlardi, afsus.*

Shoir hayvonlarga xos harakatlarni kuz faslida tabiatda kuzatiladigan jarayonlarga o'xshatish orqali kuzga nisbatan “*uch sariq ilon*” metaforasini qo'llagan. O'zbek xalqining milliy-madaniy qadriyatlari, xalq donoligining aks etishini qo'llagan “*uch sariq ilon*” ma'no ko'chishida ko'rishimiz mumkin. Xalqimizda kuzda daraxtlarning barglari to'kilishiga qarab qishning erta yoki kech kelishi aniqlanadi. Agar daraxt barglari uchidan to'kilsa, “qish erta keladi, kuz sovuq bo'ladi” yoki aksini anglatuvchi hayotiy tajribaga asoslangan dono fikr bor. Shoir shu qarashlarga ko'ra barglarning pastdan yoki tepadan birin-ketin to'kilishini ilonning o'rmalash harakatiga, chinorning barglari to'kilib ochilib qolgan kulrang, bo'rtgan po'stlog'ini ilonning naqshli tanasiga, kuz shamolida barglarning shovullab ovoz chiqarib to'kilishini ilonning tabiiy tovushiga o'xshatib, uni yanada jonli tasvirlash maqsadida *ku - u - z* so'zini bo'g'inlab ifodalashda ko'rsatadi. Shuningdek, shoir inson ilonni ko'rgandagi sovuqlikni his qilish va seskanish holatini kuzning ilk sovuqlarini his qilishidagi holatga o'xshatadi. Kuzdagi harflar sonini kuzning uch oyiga nisbatlab *uch sariq ilon* nomlanishida aks ettiradi. O'zbek adabiyotida ilk marotaba Shavkat Rahmon ijodida kuzga nisbatan “*uch sariq ilon*” metaforasi qo'llangan. Bu shoir she'riyatining xalq hayoti bilan chambarchas bog'liq ekanligi, uning ildizlari xalq turmush tarzi, ma'naviy merosi bilan oziqlanishiga yaqqol dalildir.

Shoir o'z she'rlarida elni hushyorlikka, o'z erki uchun kurashishga, g'urur va sha'nini himoya qilishga, haq-huquqini tanishga chaqiradi. Ammo shunday she'rlari ham borki, ularda hafsalaning pir bo'lishi, odamlarning mutelikka ko'nikib qolganidan o'kinish, umidsizlik, chorasizlik kayfiyati sezilib turadi. O'tkir metaforalar bilan bilan kinoya qilib, ko'nglidagi gaplarni yuzaga chiqaradi:

*Chindanam xudoning qahri kelibdi,
yemishing to'ppa-yu ichmishing zahar,
uzoq payt ishlamay miyang eribti,
itlaring yo'talar,
eshaklaring kal. (“Bir suvrat taassuroti”)*

Shoir millatning buyruqlarni ko'r-ko'rona bajaruvchisi manqurt bo'lib qolgani hatto hayvonlari ham fojiali holatga yetib kelganini aytib, buni “xudoning qahriga uchrash”ga qiyoslaydi va badiiy niyatini ta'sirchan, qabariq ifodalashga erishadi.

Xullas, Shavkat Rahmon she'rlarida metaforaning an'anaviy va xususiy metaforalarning betakror va go'zal namunalari ko'plab uchraydi, bu tasvir vositasi ijodkor poetik mahorati va uslubidan kelib chiqqan holda rang-baranglik va o'ziga xoslik kashf etgan. An'anaviy metaforalarni shoir badiiy matnga olib kirar ekan mavjud hosila ma'nolarda emas, mahorat bilan tanlangan boshqa so'zlarning

mazmuniy qurshovida yangi semalarni yuklagan holda olib kiradi. Bu jarayonda leksemalrning ifoda semalari bilan ma'no kengayishi kuzatiladi. Shuningdek, shoirning individual *Uch sariq ilon, temir panjara, er yigit, er qiz, kunlar pisha boshlaydi kabi* individual metaforalari ham ohorliligi, poetik to'yinganligi bilan badiiy qimmatga ega. Mahoratli shoir metaforadan she'riy nutqni bezash, his-tuyg'uni, fikrni obrazli ifodalash vositasi sifatida keng foydalangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Adabiyotshunoslik terminlar lug'ati. – T. 1967. B.110.
2. Abdullayev A. O'zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. –T.: Cho'lpon, 1993. B.23.
3. Abdupattoev M. O'zbek tilining poetik sintaksisi: Filol. fan. bo'yicha falsafa d-ri (PhD) ... diss. – Farg'ona, 2021. B-145.
4. Белый А. Символизм. –М., “Мусагет”, 1910.С. 78
5. Колшанский Г.В. Контекстная семантика. – М.: Наука, 1980. С .99-100. «Летературная газета» 1965. 4 ноябр.
6. Mahkamov N., Yermatov I.Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati.
7. Mullaxo'jaeva R. Tafakkur yangilanishi. –T.: Muharir, 2019. 112 b.
8. Mirtojiev M. Semasiologiya. –T.: Mumtoz so'z, 2010. -48b.
9. Muhammadjonova G. 80-yillar oxiri 90-yillar boshlari o'zbek she'riyatining lingvopoetik tadqiqi. Filol.fan nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2004. – B. 14.
10. Потебня А.А. Из записок теория словесности.- Харьков. 1955.С.26
11. Philipp Marthe. Semantik des Deutschen. - Berlin: WBVB, 1998, S. 21.
12. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2019, – B. 181.
13. O'zbek tilining izohli lug'ati. 3-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2022.– 646 b.